

Demokratiyaning dolzarb prinsipi bo‘yicha referendumlar jamiyatda katta ahamiyatga ega bo‘lib, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda qatnashish imkoniyatini ta’minlaydi.

Referendum institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

Ommaviy ovoz berish fuqarolar orasida fikr almashishni mustahkamlaydi. Referendum xalq tomonidan hokimiyat ishlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy shakli bo‘lib, xalqning asosiy huquqi va shunga mos ravishda konstitutsiyaviy tuzumning tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

1980-yilda dunyo aholisining atigi 46 foizi, ya’ni 54 davlatda demokratiya imtiyozlaridan bahramand bo‘lingan, ya’ni jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar referendum asosida amalga oshirilgan. Bugungi kunda dunyoning 133 ta davlatida muhim masalalar umumxalq ovoz berishi bilan amalga oshirilmoqda.

Bugun dunyoda odamlar inson huquqlari himoyalangan va erkinliklari ta’minlangan jamiyatlarda yashashmoqda. Umumiy ovoz berish – demokratik jamiyatlarda fuqarolarning siyosiy boshqaruvda ishtirokini kuchaytirish va jamiyatning o‘zini boshqaruvchi organlarga munosabatini shakllantirishda muhim omildir. Xalq davlat organlari va mansabdor shaxslardan referendum o‘tkazish huquqini amalga oshirish va shu huquqni tartibga solish uchun zarur sharoit yaratishni talab qilish huquqiga ega. Referendumda ishtirok etish huquqi fuqarolarning konstitutsiyaviy kafolatlaridan bo‘lib, bu huquq davlat hokimiyatini cheklashga va shaxsning huquqini himoya qilishga majbur qiladi.



To‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya institutlari orasida referendum alohida o‘rin tutadi. Bu, birinchi navbatda, referendumda qabul qilingan qaror, qoida tariqasida, yuqori yuridik kuchga ega ekani bilan izohlanadi. Boshqa tomondan, aynan mana shu holat, referendum o‘tkazish amaliyoti ham referendumda qabul qilingan qarorlar har doim ham jamiyatning tub manfaatlariga mos kelmasligini, ba’zan ularga zidligini ko‘rsatadi. “Referendum” atamasi turli xil ma’nolarni o‘z ichiga oladi va ko‘p davlatlarda ikki turi keltirib o‘tiladi. Bular majburiy yoki ixtiyoriy deb ataladi. Ba’zi mamlakatlarda bu ikki turdagi referendum uchun turli nomlar qo‘llanadi. Referendumlarning ushbu turlari kim tashabbus qilganiga qarab tasniflanadi.

Majburiy referendum muayyan shartlar bajarilganda yoki hukumatning muayyan harakatlari uchun ovoz berish uchun zarur bo‘lgan referendumdir. Ular jamoatchilikdan hech qanday imzo talab qilmaydi. Majburiy referendum odatda konstitutsiyaviy o‘zgarishlarni hamda xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va xalqaro tashkilotlarga qo‘shilish, davlat xarajatlarining ayrim turlarini ratifikatsiya qilish uchun qonuniy talab qilinadigan qadam sifatida o‘tkaziladi.

Majburiy referendumlarning tipik turlariga quyidagilar kiradi.

Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar. Ba’zi mamlakatlar yoki mahalliy hukumatlar har qanday konstitutsiyaga o‘zgartishlarni majburiy referendum orqali kiritishni tanlashadi. Bularga Avstraliya, Irlandiya, Shveysariya, Daniya va AQShning 50 shtatidan 49 tasi kiradi (faqat Delaver bundan mustasno).

Moliyaviy referendum. Ko‘pgina hududlar hukumatning ma’lum obligatsiyalar chiqarishi, soliqlarning belgilangan miqdordan oshib ketishi yoki ma’lum miqdorda qarz olishi uchun referendum o‘tkazishni talab qiladi. Masalan, Kaliforniyada shtat hukumati shtat miqyosidagi obligatsiyalar bo‘yicha umumiy ovoz berishsiz 300 000 dollardan ortiq qarz olishi mumkin emas.

Xalqaro aloqalar. Shveysariyada kollektiv xavfsizlik va milliy hamjamiyatga qo‘shilish bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro shartnomalarni qabul qilish bo‘yicha majburiy referendumlar o‘tkaziladi. Ushbu turdagi referendum mamlakat tarixida faqat bir marta sodir bo‘lgan. 1986-yilda Shveysariyaning BMTga a’zo bo‘lishga urinishi muvaffaqiyatsiz yakunlangan.

Urush referendumi. Immanuel Kant tomonidan birinchi marta taklif qilingan referendumning faraziy turi – urush referendumida urush e’lonini tasdiqlash uchun referendum o‘tkaziladi. Uni hech qachon hech bir davlat qabul qilmagan.

Ixtiyoriy referendum – talab natijasida ovozga qo‘yiladigan referendum. Bu ijro etuvchi hokimiyatdan, qonun chiqaruvchi hokimiyatdan yoki odamlarning so‘rovidan kelib chiqishi mumkin (ko‘pincha imzo talabini bajargandan keyin). Qonun chiqaruvchi organ yoki hukumatning murojaati sifatida ham tanilgan. Bu jamoatchilik fikrini o‘rganish uchun maslahat savollari yoki qonunning majburiy savollari bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, fuqarolarning yangi qonunlarni taklif qilishi va ovoz berish uchun fuqarolar boshchiligidagi harakat ham ixtiyoriy referendumga mansub.

O‘zbekiston qonunchiligida referendumlarga davlat va jamiyat boshqaruvining asosiy qarorlarini o‘zgartirishda va yangi qonunlar qabul qilishda o‘zining o‘rnini topgan jarayonlardan biri sifatida qaraladi. Referendumlar O‘zbekiston Konstitutsiyasi va “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Referendum tashkil etish tartibi qonunchilikka binoan O‘zbekiston Prezidenti, Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston qonunchiligida referendumlar aholi ishtirokini kuchaytirish, milliy mafkura-

larni himoya qilish va davlat boshqaruvining adolatliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar fuqarolarning jamiyat va davlat hayotining muhim masalalari bo‘yicha umumxalq ovoz berishi orqali qonunlar va qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi va faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Referendum O‘zbekistonning butun hududida o‘tkaziladi. Referendum fuqarolarning o‘z xohish-irodasini umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bildirishi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston fuqarolarining referendumda ishtirok etishi ixtiyoriy va erkindir.

O‘zbekiston fuqarolarini referendumda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida ularga, shuningdek xohish-irodasini erkin bildirishiga ta’sir ko‘rsatishga hech kim haqli emas. O‘zbekiston fuqarolari referendumda teng asoslarda ishtirok etadilar. Har bir fuqaro bir ovozga ega bo‘ladi. Referendumga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish ochiq va oshkora amalga oshiriladi. Fuqarolarning o‘z xohishini bildirishi nazorat qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston fuqarolari referendumda bevosita ishtirok etadilar. Referendumga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarda siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Manfaatdor tashkilotlar, tashabbuskor guruhlar kuzatuvchilari to‘g‘risida okrug komissiyalariga referendum o‘tkazilishiga kechi bilan 10 kun qolganida ma’lum qilishadi. Referendum o‘tkazuvchi okrug komissiyasi manfaatdor tashkilotdan, fuqarolar tashabbuskor guruhidan ariza olganidan keyin 5 kun ichida mandatni kuzatuvchi uchun beradi. Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarning kuzatuvchilariga mandatlarni O‘zbekiston Markaziy saylov komissiyasi beradi. Referendumda qabul qilingan qaror, shu jumladan qonun shaklida qabul qilingan qarorni O‘zbekiston Markaziy saylov komissiyasi referendum yakunlari rasmiy e’lon qilingan kuni uning ijrosini tashkil etish uchun O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Prezidentiga yuboradi. Referendumda qabul qilingan qaror O‘zbekistonning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘ladi va davlat hokimiyati organlarining hujjatlari bilan tasdiqlash talab qilmaydi.

Referendumlar O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi o‘zgartishlarni tasdiqlash uchun ham o‘tkaziladi. Konstitutsiyani o‘zgartishdagi referendum natijalari demokratik tizimni mustahkamlash, davlatning tuzilishi demokratik qadriyatlarga mos kelishini ko‘rsatadi. Referendumlar O‘zbekistonning milliy mafkurasini himoya qilish maqsadida ham o‘tkaziladi. Referendum natijalari milliy identifikatsiyani kuchaytirishda va jamiyat birligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qonun hujjatlari va qarorlarni o‘zgartirishda asosiy manbalardan biri sifatida ishlatiladi. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonunda referendum predmeti bo‘lmaydigan masalalar keltirilgan.



Bular:

- O‘zbekistonning hududiy yaxlitligini o‘zgartirish;
- O‘zbekiston davlat budjeti va soliqlar;
- amnistiya va afv etish;
- jamoat tartibini, aholi sog‘lig‘i va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar o‘tkazish;
- O‘zbekistonning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish;
- mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish.

Oʻzbekistonda referendum oʻtkaziladigan kunga qadar yoki referendum kuni oʻn sakkiz yoshga toʻlgan Oʻzbekistonning har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga egadir va Oʻzbekiston hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan fuqarolar ham referendumda ishtirok etishga toʻla haqli. Sud muomalaga layoqatsiz deb topgan fuqarolar, shuningdek ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlar sodir etgani uchun sudning hukmiga koʻra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar referendumda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning referendumda ishtirok etish huquqlarini toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita cheklashga yoʻl qoʻyilmaydi.

Referendum oʻtkazish tashabbusi bilan Oʻzbekiston fuqarolari, Oʻzbekiston Oliy Majlisining palatalari, Oʻzbekiston Prezidenti chiqishi mumkin. Oʻzbekiston fuqarolarining referendum oʻtkazish tashabbusini amalga oshirish tartibi haqida toʻxtalish maqsadga muvofiq.

“Oʻzbekiston Respublikasi referendumi toʻgʻrisida”gi qonunning 12-moddasiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari agar, referendumda ishtirok etish huquqiga ega boʻlgan fuqarolar umumiy sonining kamida besh foizini tashkil etgan fuqarolar imzosi toʻplangan boʻlsa, bunda imzolayotgan fuqarolar miqdori har bir ma’muriy-hududiy tuzilma (Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahri) boʻyicha bir tekis va mutanosib ravishda taqsimlangan boʻlsa, referendumni oʻtkazish tashabbusi huquqini amalga oshiradilar. Oʻzbekiston Respublikasining referendumda ishtirok etish huquqiga ega boʻlgan har bir fuqarosi yoki fuqarolar guruhi referendumni oʻtkazish toʻgʻrisidagi tashabbusni qoʻllab-quvvatlovchi imzolarni toʻplash uchun kamida yuz kishidan iborat tashabbuskor guruhni tuzishi mumkin.

Fuqarolar tashabbuskor guruhining vakolatli vakili guruhni roʻyxatdan oʻtkazishni soʻrab Markaziy saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi. Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarning ushbu qonun talablariga muvofiqligini aniqlagach, ular tushgan kundan e’tiboran besh kun ichida fuqarolar tashabbuskor guruhini roʻyxatga olish yoki roʻyxatga olishni rad etish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Fuqarolar tashabbuskor guruhini roʻyxatga olish toʻgʻrisida qaror qabul qilinganidan keyin vakolatli vakilga roʻyxatdan oʻtganlik guvohnomasi beriladi. Markaziy saylov komissiyasi tushgan hujjatlarning ushbu qonun talablariga muvofiqligini tekshiradi va imzo varaqalari tushgan kundan e’tiboran oʻn kun ichida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga xulosasini yuboradi hamda bu haqda Oʻzbekiston Prezidentini xabardor qiladi.

Referendum va saylov

Referendum va saylov masalasiga toʻxtalsak, har ikkala tizim ham siyosiy institut sifatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqini roʻyobga chiqaradi. Oʻzbekiston Konstitutsiyasi hamda Saylov kodeksiga muvofiq Oʻzbekiston fuqarolari davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishlari mumkin. Referendum va saylovning farqli jihatlari quyidagilarda namoyon boʻladi. Referendumda mamlakat hayoti uchun eng muhim boʻlgan masalalar yuzasidan qonun yoki qaror qabul qilish masalasi umumxalq ovoziga, ya’ni fuqarolar ovoz berishlari uchun qoʻyiladi. Bu jarayonda fuqarolar erkin va ixtiyoriy ravishda munosabatini bildirishadi. Saylovda esa bir nechta nomzodlar taqdim etiladi, fuqarolarga munosib nomzodni tanlash imkoniyati beriladi. Demokratik saylov sogʻlom raqobat muhitida bir emas, bir nechta nomzod qoʻyilgan holda oʻtkazilishi lozim. Referendumda bunday nomzodlar saylashga yoʻl qoʻyilmaydi. Saylov va referendum byulletenlari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Referendum byulleteniga referendumga qoʻyilayotgan masalaning matni yoki savoli kiritiladi yoki “qabul qilasizmi?” degan savol qoʻyiladi. Ovoz beruvchi xohishining variantlari “ha” yoki “yoʻq” yoxud “rozi” yoki “qarshi” deb koʻrsatiladi. Saylovda esa nomzodlar koʻrsatiladi va saylanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, referendum fuqarolarning muhim masalalar boʻyicha ovoz berib, fikrini bevosita bildirishidir. Referendum demokratiyaning muhim vositasidir.

Zafar FARMANOV,
Navoiy viloyati adliya boshqarmasi
boshligʻining 1-oʻrinbosari